

O'zbekiston

Metama'lumot

O'rmonlarni parvarish qilish uchun kesish, o'rmon yong'inliklari va o'rmon yer fondi yerlari ma'lumotlar

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi «O'rmon to'g'risida» gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi "O'rmon xo'jaligi boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 530-sonli qaroriga asosan ish yuritadi.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rmon xo'jaligi qo'mitasi hamda viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilgan statistik ma'lumotlar Qo'mitaga elektron hamda bosma nashrlarda taqdim etiladi.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

Statistik ma'lumotlar yilning 1 dekadasida ishlab chiqiladi (15 martgacha).

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Markaziy apparatda o'rmonlarni parvarish qilish uchun kesish ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha O'rmonlarni qo'riqlash va muhofaza qilish boshqarmasida 4 nafar, o'rmon yong'inlari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'rmon xo'jaligida favqulodda holatlar va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'limida 2 nafar va o'rmon yer fondi yerlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish uchun Hidromelioratsiya va davlat o'rmon kadastri boshqarmasida 4 nafar xodim faoliyat yuritadi, hududiy viloyat boshqarmalarida 1 nafardan o'rmonlarni muxofaza qilish muxandisi va 1 nafardan o'rmon kadastri mutaxassilari faoliyat yuritadi.

O'rmonlarni muxofaza qilish ishlarini nazorat qilib borish uchun xodimlar soni yetarli. Hududiy viloyat boshqarmalaridagi o'rmonlarni muxofaza qilish muxandislarining barchasi to'liq oliy ma'lumotga ega emas.

Ushbu xodimlarni rejaga asosan 1 yilda bir marta amaliy va nazariy ko'nikmalari oshirilib boriladi.

Boshqarmada kompetrlar soni yetarli, har bir xodim aloxida o'zlariga biriktirib berilgan, lokal tarmoqqa ulangan, muntazam ravishda dasturiy ta'minot yangilanib turadigan kompyuterda ishlaydi.

O'rmonlarni sog'lamlashtirish, parvarish va qayta tiklash maqsadida kesish, o'rmon yong'inlarini oldini olish chora tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16-apreldagi 475-son Qonunining 24, 29-moddalariga va Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 22 noyabirdagi 506-sonli qarori, shuningdek Davlat O'rmon kadastrini yuritish Yer kodeksi asosan tartibga solinadi.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

Statistik ma'lumotlar yil davomida rejalar asosida bajarilgan ishlar, o'rmon yong'inlari sodir bo'lishi va yer tofalarining o'zgarishi yuzasidan shakllangan ma'lumotlar asosida ishlab chiqiladi.

1.1. Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rmon xo'jaligi qo'mitasi hamda viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilgan statistik ma'lumotlar qo'mitaning asosiy manbasi hisoblanadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

Mavjud emas

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

Barcha o'rmon xo'jaliklari tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar asosida o'rmon to'g'risidagi statistik ma'lumotlari shakllantiriladi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlarga e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

Statistik ma'lumotlar xukumatga doimiy ravishda taqdim etib boriladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarni belgilash

Statistik ma'lumotlar qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan jadvallar asosida shakllantiriladi.

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

Agarda statistik ma'lumotlarda o'zgarishlar yuzaga kelsa xabarnoma orqali barcha o'rmon xo'jaliklariga yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

Qo'mita hodimlari ichki tartib qoidalarga amal qilgan holda ish faoliyatlarini yuritadilar.

2. Metodologiya

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

O'rmonlarni kesish, o'rmon yong'inlari va yerlardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar xududiy viloyat boshqarmalari tomonidan xar chorak yakuni bilan O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasiga taqdim etiladi va taxlil qilib boriladi.

Xisobotlar qo'mitaga idoraviy nazoratni olib borish va umumlashtirish uchun xar chorak yakuni bilan viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmalari tomonidan taqdim etib boriladi.

O'rmonlarni biologik yoshini o'tab yoki zazarkunandalar bilan zararlangan daraxtlarni kesish m³ da, o'rmon yong'inlari esa o'rmon bilan qoplangan maydon bo'lsa daraxt soniga agarda ochiq maydonda yong'in sodir bo'lganda gektaga nisbatan xisoblanadi.

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi O'rmon muxofazasi boshqarmasi faqatgina Respublika o'rmon fondidagi kesish uchun ajratilgan maydon va o'rmon yong'inlarini qat'iy nazoratga olib boradi.

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining joylardagi viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmasi va davlat o'rmon xo'jaligida faoliyat yuritayotgan o'rmonchilar tomonidan qo'riqlanadi va muhofaza qilinadi.

Qo'mitaga O'rmon fondi yerlarida kesiladigan daraxtlar va o'rmon yong'inlari haqidagi ma'lumotlar to'liq taqdim etiladi.

2.2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rmon xo'jaligi qo'mitasi, 9 ta viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmalari va milliy tabiat bog'lari, o'rmon ovchilik xo'jaliklari va davlat o'rmon xo'jaliklarini o'z ichiga oladi.
O'rmonlarni qayta tiklash maqsadida kesiladi.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot

2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yo'q

2.4 Hisobga olish asosi

2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

O'rmonlarni kesish va yong'in to'g'risidagi ma'lumotlarni olib umumlashtirib, taxlil qilib borish uchun Respublika bo'yicha umumlashtirilib boriladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

O'rmon fondi yerlaridagi kesish ishlari va o'rmon yong'inlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi va viloyat o'rmon xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni xar chorak yakuni bo'yicha qo'mitaga taqdim etadi. Taqdim etgan ma'lumotlarga asosan qo'mitada Respublika bo'yicha shakllantirilib boriladi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

O'rmon fondi yerlaridagi kesish ishlari va o'rmon yong'inlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi va viloyat o'rmon xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni xar chorak yakuni bo'yicha qo'mitaga taqdim etadi va yilda bir marta shakllantiriladi.

3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'rmon fondi yerlaridagi kesish ishlari va o'rmon yong'inlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi va viloyat o'rmon xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni xar chorak yakuni bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladi.

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Axborotlarni tayyorlash qat'iy belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar yilda bir marta, har chorakda, hisobot davridan keyin 20 kundan ko'p bo'lmagan muddatda topshirib boriladi.

3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi, viloyat o'rmon xo'jaliklari boshqarmalari tomonidan olingan hisobot ma'lumotlari tahlil

qilinadi, axborotlarda xatoliklar aniqlangan hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarga tuzatish kiritish va qayta ishlash asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirishdan oldin dastlabki ma'lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'rmonlarni kesish va o'rmon yong'inlari to'g'risidagi ma'lumotlar oldingi chorak ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Chiquvchi ma'lumotlardagi tafovutlar o'rganiladi, hisobot davridagi ma'lumotlarni o'tgan chorak va o'tgan yil natijalari bilan solishtirish ishlari amalga oshiriladi, katta farqlar aniqlanganda ularning sabablari tahlil qilinadi va aniqlik kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Choraklik va yillik hisobot ma'lumotlari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, zarur hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi va so'ralgan joyga belgilangan tartibda beriladi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

O'rmonlarda kesish ishlari va o'rmon yong'inlari hamda o'rmon yerlari to'g'risida ma'lumotlar har chorakda va yilda bir marta shakllantiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar xar yili shakllantiriladi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

O'rmonlarni kesish, yong'inlar, o'rmon yerlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish yillik ish rejaga muvofiq belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar taqdim etish vaqtida foydalanuvchilarga ma'lumotlar dastlabki ekanligi ma'lum qilinadi va belgilangan tartibda foydalanuvchiga taqdim qilinadi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ko'rilayotgan ma'lumotlarning o'tgan davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganligi tahlil qilinadi, bu esa ma'lumotlarning ishonchliligini baholash imkonini beradi.

O'rmonlarni kesish, yong'in va yer toifalari to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar jadval ko'rinishda so'ralgan joyga belgilangan tartibda beriladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

O'rmonlarni kesish, yong'in va yer toifalari to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar jadval ko'rinishida so'ralgan joyga belgilangan tartibda beriladi. Jadvallar asosida elektron yoki bosma nusxalarda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra belgilangan tartibda taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Ma'lumotlar jadval ko'rinishida.

5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Jadvallar foydalanuvchilarning maxsus so'rovlariga asosan

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'rmonlarni kesish, yong'in va yer toifalari to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar jadval ko'rinishida so'ralgan joyga belgilangan tartibda beriladi

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejalari – Oxirgi takomillashtirishlar

Yo'q

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

Yo'q

9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O'rta muddatlilari

Yo'q

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish davlat budjeti va o'z mablag'lari doirasida ta'minlangan.

9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O'rta muddatli

Moliyalashtirish davlat budjeti va o'z mablag'lari doirasida ta'minlangan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

	Aloqa bog'lash uchun shaxs		
F.I.O.:	Mamatkarimov Alijon		
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i		
Departament:	O'rmonlarni qo'riqlash va muhofaza qilish boshqarmasi		
Idora:	O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi		
Manzil (1 satr):	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitetskaya ko'chasi, 2 uy		
Manzil (2 satr):			
Shahar/region:	Toshkent viloyati		
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi		
Pochta indeksi:	100164		
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998	71	273-72-22
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998	71	273-71-71
Elektron manzil:	muhofaza@urmon.uz		